

DOI: 10.5281/zenodo.16889997

Link: <https://zenodo.org/records/16889997>

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA AGROSANOAT MAJMUASI TIZIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich,
Babanazarova Sarbinaz Karamatdinovna
Qoraqalpoq davlat universiteti*

Annotatsiya: Hozirgi kunda raqobat muhiti tobora kuchayib borayotgan sharoitida davlat idoralari, ilmiy doiralar hamda biznes vakillari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – agrosanoat majmuasi sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun yangi institutsional mexanizmlar va vositalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Agrosanoat majmuasi tizimlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy, metodologik va amaliy asoslarni ishlab chiqish va aniqlash hozirgi davrda alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu tizimlar, birinchi navbatda, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan tashqi qaramlikni kamaytirish, shuningdek, tarmoqlararo va hududlararo integratsiyani yanada kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ushbu maqolada agrosanoat majmuasi tizimini boshqarishning nazariy asoslari o'rganishga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: Agrosanoat majmuasi, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrar ishlab chiqarish, agrosanoat majmuasi tizimi, boshqaruv mexanizmlari.

I. KIRISH

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarasi ko'p jihatdan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq, bir me'yorda barqaror ishlashini ta'minlash, pirovardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, mahsulotlar sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga intilish bugungi kunda agrosanoat majmuasida ham eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Agrosanoat majmuasini rivojlantirish axolining turmush darajasini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilmoqda. Olib borilgan siyosat natijasida agrar sohada nodavlat sektor tez rivojlantirildi. Shuning uchun yangi boshqaruv qarorlari va hududiy darajalarda agrosanoat majmuasini rivojlantirishning mezonlari va parametrlarini ishlab chiqish zarurdir.

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlari O'zbekiston agrosanoat

majmuasining tashkiliy muhitini yanada murakkablashtiradi. Bu esa o'z navbatida, davlat boshqaruvini markazlashtirish va uni mahalliy hududlarga moslashtirish kabi qarama-qarshi tendensiyalarni keltirib chiqaradi[15]. Shu munosabat bilan, agrosanoat majmuasining hududiy-iqtisodiy tizimlari doirasida o'zaro hamkorlikni muvozanatli tarzda tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy yutuqlar qayta tahlil qilinib, agrosanoat majmuasining rivojlanishiga oid asosiy tushuncha va kategoriyalar tipologik yondashuv asosida tizimlashtirildi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda oziq-ovqat ta'minoti zanjiri tizimini takomillashtirish borasida xorijiy olimlardan Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K., Matthew N.O., Sadiku S.M., Tolulope J.A., Clercq M.D., Vats A., Biel A., Panova A.V., Bozsik N., Cubillos T.J., Stalbek B., Vasa L., Magda R., Sandu I.S., Nechaev V.I., Voiku I.P., Ahmad Zia Wahdat, Jayson L., Sutherland Ch., Le Vallee J. C., Charlebois S., Bonetti M., Hadjidimitriou N., Peroni M., Zanolli A., Katajajuuri J.M., Akkerman R., Yasin Li J., Yun-Hwa P., Qilong Zou, Wu K.lar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha MDH mamlakatlari olimlaridan Sardak S.E., Ogdanskiy K.N., Trifonova O.D., Kulev D.X., Dotsenko V.A., Klovkov Y.V., Chichikin A.A., Gusarova Y.V., Gnatovskaya Y.S., Belyaev N., Donskova L., Atayev K.B., Rastorguev P.V., Rudnev M.Y., Gorodilin D.Y., Vasileva N.A., Tleuberdinova A.T., Salibekova P.K., Jukova Y.S., Kuzmina A.O., Zhemokleeva A.S., Orinbekova G.A., Tulegenova J.U., Pyagay A.A., Atirbekov A.SH., Dovidenko V.A., Akimova R.A. va I.Gusakovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mamlakatimizda ham agrosanoat majmuasini rivojlantirish, aholini qishloq xo'jaligi maxsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoati tarmog'ini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi maxsulotlari importini qisqartirish va eksportini oshirish masalalari Abdug'aniyev A.A, Berkinov B.B., Maxmudov N., Abduganiyev O.A., Abulkosimov X.P., Bekenov S.S., Mamaraximov B.E., Kobilov SH.R., Saidova D.N., Rasulov T.S., Rustamova I.B., Nazarova F., Saidaxmedova N.I., Umarov I.Y., Tolipova B.F., Mamatqulov M.SH., Ziyovuddinov SH., Xamraev N.R. kabi olimlar[1-8, 10-15] ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Xususan M. D. Usmonov "Agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish"[15], X. T.Bekchanov "Agrosanoat mintaqaviy-iqtisodiy tizimlarining tashkiliy muhitini transformatsiya qilish yo'nalishlari"[2], G'.A. Ibragimov esa "Agroxizmat korxonalari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari"[7] ini o'rganagan.

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrosanoat majmuasi tizimini boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha 2020-yil 18-martdagi "Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4643-son, 2019-yil 29-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4406-son

qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqolada ekspert baholash va taqqoslashga asoslangan statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda qo'llaniladigan zamonaviy statistik usullar va kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, ishda grafik, analitik, strukturaviy tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

IV. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Agrosanoat majmui (ACM) — xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligi xom ashyosidan aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan tarmoqlar, korxonalar, faoliyat turlari majmui. Agrosanoat majmui murakkab va ko'p tarmoqlidir. Uning ishlab chiqarish tuzilmasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat majmui 3 sohani o'z ichiga oladi: 1) qishloq xo'jaligi (aholining tomorqa xo'jaligi ham kiradi) va o'rmon xo'jaligi; 2) qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari — traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, meliorativ va suv xo'jaligi ob'ektlari qurilishi tarmoqlari, asosiy fondlar ta'miri bo'yicha korxonalar, mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalari, biologik faol preparatlar ishlab chiqarish, ozuqa va mikrobiol. sanoati, turli idishlar (tara) tayyorlash va boshqalar; 3) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlar (tayyorlov, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish va boshqalar). Har bir tarmoq tarkibida ishlab chiqarish rivojining umumiy sharoitini ta'minlaydigan tarmoq infratuzilmalari muhim ahamiyatga ega (yo'l-transport xo'jaligi, moddiy texnika ta'minoti, elektr, gaz, suv ta'minoti, aloqa, omborxona elevator xo'jaligi, ulgurji va taqsimot bazalari va boshqalar). Shuningdek, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari, mutaxassislar va rahbar xodimlar malakasini oshirish fakultetlari, ixtisoslashgan texnikum va ishlab chiqarish texnika bilim yurtlari, tarmoq ilmiy tadqiqot instituti va laboratoriyalari, IIB, loyiha va institutlari hamda tashkilotlari, konstruktorlik byurolari, tajriba va davlat sinov stansiyalari tizimi Agrosanoat majmuini shakllantiradigan tarmoqlar qatorida turadi[22]. O'zbekiston Agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi (un-yorma, yog'-moy (paxta moyidan tashqari), go'sht, sut, meva-konserva, vinochilik sanoati) va ikkilamchi (non, makaron, kondi-ter, paxta moyi, go'sht, sut konservasi va mahsulotlari, oziq-ovqat konsentratlari) qayta ishlaydigan tarmoqlar va sohalardan iborat oziq-ovqat sanoati, texnika ekinlarini birlamchi (paxta, lub ekinlari, tamaki) va ikkilamchi (ip gazlama, to'qimachilik sanoati, lub tolalari, tamaki-maxorka mahsulotlari) qayta ishlaydigan tarmoq va sohalarni o'z ichiga olgan yengil sanoat muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat majmui hududiy xususiyatlar va ishlab chiqarayotgan eng muhim pirovard mahsulotiga qarab tizimlarga bo'linadi. Hududiy xususiyatiga ko'ra mamlakat va viloyat, tuman Agrosanoat majmui mavjud. Ishlab chiqarayotgan pirovard mahsulot bo'yicha don, paxta, meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa majmuaga bo'linadi. O'zbekiston tarixan rivojlangan paxtachilik, suv xo'jaligi, mashinasozlik zavodlari, o'g'it va pestitsidlar ishlab chiqaradigan zavodlar, paxta tozalash korxonalari, yog'-ekstraksiya zavodlari, to'qimachilik sanoati, ixtisoslashgan

ilmiy muassasalarga ega. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ASM hissasiga yalpi mahsulotning 50% dan ortiqrog'i, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 40% dan ortig'i, xalq xo'jaligida band aholining 45% ga yaqini to'g'ri keladi. O'z navbatida Respublika ASMda paxtachilik agrosanoat majmui (PASM) eng yuqori salmoqqa ega. Respublikada chorvachilik sanoat majmui Agrosanoat majmuidan keyingi o'rinda turadi.

Biz agrosanoat majmuasini rivojlantirish tushunchasini qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo aylanmasi, kapitalni boshqarish kabi ko'p qirrali jihatlar bilan bog'lashimiz mumkin.

Ichki va tashqi muhitdagi ideologik yangiliklar, o'zgaruvchan ta'sirlarning dinamik ta'siri natijasida paydo bo'ladigan asosiy omillar va shart-sharoitlar sifatida mazkur sohada konseptual mukobillarni ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi masalalarni hal qilishda ASM rivojini tahlil qilish uchun tipologiya (turlarga ajratish) kabi ilmiy usuldan foydalaniladi. Tipologiya tahlil qilinayotgan nazariyani o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarga ajratishdan iborat bo'lib, bunda elementlar turli tuzilmalarda bo'lishi mumkin va bu empirik va nazariy talqinlar asosida bosqichma-bosqich o'zgarib borishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "ASM rivojlanishi" iqtisodiy kategoriyasi ta'rifini o'rganish mazkur tushunchaning o'zaro to'ldiruvchi qismlarini o'rganishni talab qiladi.

S.I. Ojegovning izohli lug'atida rivojlanish tushunchasi quyidagicha izohlanadi: "... bir holatdan ikkinchi, yanada mukammal holatga o'tish jarayoni". "Mukammal, eski sifatli holatdan yangi sifatli holatga o'tish, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish"[19].

"Rivojlanish" hodisasini, ya'ni qandaydir obekt yoki tizimning sifat jihatdan o'zgarishini antik dunyoning buyuk mutafakkirlari (Aristotel, Platon) hamda yangi davr olimlari (G. Galiley, M.V. Lomonosov, I. Kant, G. Hegel, K. Marks va boshqalar) o'z tadqiqotlarida o'rgananganlar.

Iqtisodiyot sohasidagi sifat o'zgarishlarni tadqiq qilishda turli xil texnologik, innovatsion, tashkiliy-boshqaruv va iste'molchilik yangiliklarini joriy etish borasida Y. Shumpeterning xizmatlari katta.

Uning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (1911) nomli ilmiy asarida ushbu sohadagi ilmiy bilimlarning asosini yaratib, bozor talabi va taklifining innovatsiyalarga ta'sirini ochib bergan. U innovatsiyalarni ishlab chiqarish munosabatlarining tegishli bosqichini tavsiflovchi va aniqlovchi sifatli o'zgarishlar deb tushungan[20]. Keyinchalik ushbu nazariya ko'plab taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan G. Bekker, N. Kondratev, S. Kuznets, V. Leontev va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan va to'ldirilgan.

Hozirgi kunda shakllangan ilmiy qarashlar va nazariy tasavvurlarni umumlashtirib, "iqtisodiy rivojlanish" terminiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tizimning ma'lum bir bosqichida evolyusion va impulsiv (transformatsiyaviy) sifatli o'zgarishlari bo'lib, bunda institusional tashkilot va boshqaruv mexanizmlarining murakkablashuvi, tizim elementlari va tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarning kuchayishi, tegishli texnologik va ishlab chiqarish tuzumining shakllanishi va o'zini

o'zi tiklash qobiliyatining oshgani kuzatiladi.

Ushbu ta'rif rivojlanishning ikki asosiy shakli va ularni amalga oshirish usullarini birlashtiradi. Birinchi shakl – bu tashqi va ichki omillar ta'sirida tizimning bosqichma-bosqich o'zgarishidan iborat bo'lgan evolyusion rivojlanish[21]. Ikkinchi shakl – bu sifatli o'zgarishlarga olib keluvchi miqdoriy o'zgarishlarning sakrash bilan sodir bo'lishidan iborat bo'lgan impulsiv (transformatsiyaviy) sifatli sakrashdir.

Shu sababli, agrosanoat majmuasi hamda qishloq xo'jaligi hududiy-iqtisodiy tizimlarining barqarorligini baholashda an'anaviy tarzda faqat sohani rivojlantirishga qaratilgan taktik, o'rta muddatli va strategik vazifalarning samaradorligi bilan cheklanib qolmaslik lozim. Endilikda ushbu yondashuvga ekologik mezonlarni ham kiritish zarur. Agrosanoat majmuasining ekologik ko'rsatkichlari inson faoliyatining tabiiy muhitga ta'siri, mavjud ekologik muvozanatning saqlanishi, atrof-muhit va biologik tizimlarning o'z-o'zini tiklash salohiyati, hamda bugungi va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanadi.

Mazkur ishning maqsadlariga muvofiq holda iqtisodiy rivojlanish hamda iqtisodiy samaradorlik haqidagi ilmiy qarashlarning asosiy tarkibiy jihatlarini ko'rib chiqib, biz agrar nazariyaning shakllanish bosqichlariga alohida e'tibor qaratamiz.

Tarixiy jarayonda agrar ishlab chiqarish mehnatning dastlabki ijtimoiy bo'linishiga asos bo'lgan soha sifatida shakllangan. Undan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'z ehtiyojlaridan ortiqcha qismi boshqa mehnat mahsulotlariga ayirboshlanish imkonini yaratgan va bu holat ijtimoiy munosabatlarning yanada taraqqiy etishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Iqtisodiyot va uning agrar sektori, xususan, tabiiy xo'jalik yuritish davrida iqtisodiy bog'liqliklarning mohiyatini o'rganish zarurati to'g'risidagi nazariy ishlab chiqarishlar juda erta paydo bo'lgan. "Iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib Ksenofont Afinskiyning "Xo'jalik yuritish" asaridan olingan. "Akademik A.I.Tatarkin antik sivilizatsiyaning iqtisodiy bog'liqliklarining nisbatan primitiv holatini qayd etib, yuqoridagi asarni ratsional xo'jalik yuritishdan global iqtisodiy tizimlarni samarali boshqarishga o'tish yo'lidagi evolyusion genezisning birinchi bosqichi sifatida qaragan. Buyuk qadimgi grek olimlari Platon va Sokrat Ksenofont Afinskiyning qarashlari va maslahatlarini davlat mulkini boshqarish, ne'matlarni taqsimlash va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish kabi masalalarga doir tavsiyalar darajasiga ko'targanlar".

Uzoq asrlar davomida shakllangan davlat fondi yerlari, shuningdek, jamoa va xususiy mulk shaklidagi yerlarga nisbatan mulk huquqlarini tartibga soluvchi huquqiy madaniyat Rim huquqining asosini tashkil qilgan. Keyinchalik, Vizantiya imperatori Yustinian 529-yilda tuzgan o'z nomidagi kodeksda yer egalari va yer ijarachilari (kolonlar) o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni normativ jihatdan mustahkamlab, shu orqali yer egalik huquqi va undan foydalanish masalalarida yangi bosqichni boshlab bergan.

O'rta asrlar feodalizm davrida qadimgi davr mutafakkirlari va davlat arboblari davlat boshqaruvi masalalarini ko'rib chiqishda jamiyat farovonligini ko'pincha qishloq xo'jaligidagi munosabatlar bilan bog'lagan hamda yer resursini asosiy ishlab chiqarish omili sifatida alohida ta'kidlaganlar.

"XVI asrda Yevropada zamonaviy davlat institutlarining prototiplari shakllana boshlagan davrda merkantilistlar orasida yer ijarasini jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari ishtirokchilari orasida umumiy qiymatni taqsimlash shakli sifatida ko'rish haqidagi jonli bahslar boshlandi"[9]. Buning oldidan XV asrda Angliyada va keyinchalik boshqa Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Niderlandiya, Germaniya) katta va kichik miqyosda cheklanish jarayonlari kuzatildi. Yangidan paydo bo'layotgan burjuaziya jun va mato eksportidan ortiqcha foyda olishga intilib, davlat boshqaruvida milliy iqtisodiyotni avvalo eksportni importdan oshirish hisobiga va uning resurs bazasini kengaytirish hisobiga rivojlantirish haqidagi barqaror pozitsiyani shakllantirdi.

"Merkantilizmning ochiq tanqidchisi bo'lgan U. Petti boylikni faqat pul va qimmatbaho toshlar emas, balki bu boylikning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari deb hisoblagan. U yer ijarasini nonning qiymati va uni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida baholab (shu bilan foydani almashtirib), klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri bo'lib, yerning bir xil sifatli bo'laklarining qiymati mahsulot iste'mol qilinadigan asosiy markazlardan uzoqligiga qarab farq qilishi haqida muhim xulosaga kelgan"[16].

Ya'ni, kapitalizmning ilk bosqichidanoq jamiyatning ilg'or vakillari davlatning iqtisodiy xavfsizligi va mustaqilligini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratgan. Xususan, ular qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, shuningdek, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligini ilgari surganlar.

XIX–XX asrlarda iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarishning ijtimoiy va tarixiy xususiyatlariga oid tasavvurlar shakllandi. Bu davrda intensiv agrotexnika usullariga o'tish zarurati paydo bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ya'ni o'zaro mustahkam aloqalarga asoslangan tizim yaratish dolzarb bo'ldi. Klassik siyosiy iqtisodiyot vakili A. Smit o'zidan oldingi bilimlarni umumlashtirib, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan differensial renta tushunchasini yanada chuqur tahlil qildi. U renta atamasini yerning sifati asosida ijara oluvchi to'lashi mumkin bo'lgan eng yuqori to'lov sifatida izohladi.

Olim differensial rentani ikki xilga bo'lgan:

Birinchi turdagi differensial renta - bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarining individual qiymati ijtimoiy qiymatdan past bo'lgan holatlarda yuzaga keladigan qo'shimcha foydani anglatadi. Bunday renta yer unumdorligi yoki iste'molchiga bo'lgan masofa farqi asosida shakllanadi. Ushbu renta turi, odatda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tatbiq etiladi, biroq uni qayta ishlash sanoatida xomashyo manbalarining uzoqligi bilan bog'liq holda ham qo'llash mumkin.

Ikkinchi turdagi differensial renta - bu qishloq xo'jaligi yerlariga qo'shimcha sarmoyalar kiritilishi natijasida (masalan, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, urug'lik sifatini yaxshilash, mineral o'g'itlardan samarali foydalanish va shu kabilar) hosil bo'ladigan ortiqcha daromaddir. Boshqacha aytganda, bu renta qishloq xo'jaligini intensiv usullar asosida rivojlantirish orqali erishiladigan qo'shimcha foydani ifodalaydi.

A. Smit ikkinchi turdagi differensial rentaning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslab, buning orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirishning zamonaviy usullarini qidirishga bo'lgan intilish aks ettirdi.

Ishlab chiqarish intensivligini oshirishning usullaridan biri sifatida mehnat bo'linishi jarayonlarini ko'rib chiqib, olim mehnat bo'linishini asosiy omil sifatida ko'rsatgan.

Iqtisodiy rivojlanishni evolyutsion yoki inqilobiy (transformatsion) shaklda yuz beradigan sifat jihatidan o'zgarish sifatida izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu jarayonda tizimning barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar hamda tizimning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalari ham bosqichma-bosqich o'zgarishga uchraydi.

Agrosanoat majmuasining samaradorligini baholashda faqatgina iqtisodiy natijalarni emas, balki aholining turmush darajasini oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va kelajak avlodlar uchun yashash muhitini yaxshilash kabi omillarni ham hisobga olish lozim. "Hozirgi zamon sharoitida agrosanoat majmuasining samarali rivojlanishi" degan tushunchani shakllantirishda agrar soha iqtisodiyotining zarur sifati sifatida institusional tashkilot asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va talab va taklifning nobarqarorligi sharoitida tarmoq ichida va tarmoqlararo o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan adaptatsiya mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Natijada agrosanoatning hududiy-iqtisodiy tizimlari barqarorlikka erishadi hamda o'zini tiklash salohiyatiga ega bo'ladi.

ASMT (Agrosanoat majmuasi tizimi) atamasi birinchi bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u qishloq aholisi yashaydigan hududiy tizimni anglatadi. Ushbu tizimda institusional muhitning evolyutsiyasi va agrosanoat faoliyatining o'ziga xos jihatlari tarixan shakllangan mahalliy yashash tarzi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ASMTning samarali rivojlanishini baholash mezonlari sifatida agrosanoat majmuasining natijadorligini aniqlashda ekologik omilni hisobga olish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi - agrar sohada hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini inobatga olgan holda jamiyatning qayta ishlab chiqarish salohiyatini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishidir.

Ushbu yangicha yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- * O'zbekiston Respublikasining agrar va iste'mol bozorlarida talab va taklifning nobarqarorligi kabi hozirgi zamon sharoitlarini hisobga olish;

- * Zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish uslublariga erishish uchun innovatsion yangilanishlar va ilg'or yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega;

- * Agrosanoat hududiy-iqtisodiy tizimlarining barqaror rivojlanishini baholashda ekologik omilni inobatga olish lozim, bu esa inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri hamda biologik tizimlarning o'zini tiklash imkoniyati o'rtasida muvozanatni ta'minlashni anglatadi.

ASMT (Agrosanoat majmuasi tizimi) tushunchasining yangi talqini agrosanoat majmuasi, hududiy-sanoat majmuasi, agrosanoat klasteri, tez sur'atlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan hudud kabi atamalardan kengroq mazmunni o'z ichiga oladi. Bu esa shuni anglatadiki, mazkur tizimda ijtimoiy-iqtisodiy, institusional, ekologik va

boshqa ko‘plab omillar hisobga olingan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining agrar siyosati barqaror rivojlanishning global tamoyillariga asoslanganligini va mamlakat hamda uning hududlarida agrosanoat majmuasi doirasida va undan tashqaridagi o‘zaro aloqalarni takomillashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Olimlarning so‘nggi tadqiqotlari natijasida mamlakatimiz agrosanoat majmuasining kelajagi noaniq ekani va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yangi yo‘llarni izlash zarurligi aniqlandi. Bu esa zamonaviy iqtisodiy fanning rivojlanishida o‘z aksini topmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “agrosanoat majmuasi” atamasi avvalgi mazmunida deyarli qo‘llanilmay qo‘ygan. Bugungi kunda esa agrosanoat majmuasini boshqarish jarayoni davlatning undagi roli va ishtirokining o‘zgarishi bilan uyg‘un holda mutlaqo yangi bosqichga o‘tmoqda. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi, davlat-xususiy va munitsipal-xususiy sherikchilikning rivojlanishi esa agrosanoat majmuasining yangi holati, tuzilmasi hamda shaklini turli tarmoqlar va hududlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik asosida izlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarini ta‘minlash manbalarini aniqlash, innovatsion texnologiyalar sohasidagi yangi yo‘nalishlarni belgilash hamda agrar iqtisodiyotda institutsional muhitning evolyutsiyasini kuzatish orqali agrosanoat majmuasini samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar va amaliy echimlar shakllanib borayotganini ko‘rish mumkin (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuasining zamonaviy sharoitlarda samarali rivojlanishiga oid nazariyaning shakllanish bosqichlari, paradigmalari va institutsional muhit evolyutsiyasi elementlari 1-jadvalda bayon etilgan.

“Hozirgi zamon iqtisodiy sharoitida postsovet davrida boshqaruvda strategik rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq tashkiliy o‘zgarishlar yuz berganini ta‘kidlash lozim. Mintaqaviy miqyosda ko‘plab turli konseptual strategiyalar amalga oshirilmoqda. Biroq, rus olimi akademik G.V. Bespaxotning fikricha, bu strategiyalarning majmui yaxlit iqtisodiyotni rejalashtirish tizimini shakllantirmaydi, balki ko‘pincha turli xil muvozanatsizliklarni keltirib chiqaradi”[17].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining zamonaviy sharoitda rivojlanish bosqichlari³

Bosqichlar	Xususiyatlar	Institutsional muhit evolyutsiyasining elementlari
I bosqich 1917-1991 yy. Mustaqillikka cha bo‘lgan davr	Kollektivlashtirish, yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish tizimlarining yaratilishi va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini to‘liq davlat nazoratiga o‘tkazish.	Irrigatsiya va melioratsiya ishlarining kuchaytirilishi, qishloq xo‘jaligi sanoati o‘sishi lekin ko‘p tarmoqli rivojlanishning cheklanganligi.
II bosqich 1990-2000 yy. Mustaqillikda n keyingi dastlabki davr	Bozor-ijtimoiy transformatsiya va agrosanoat majmuasi infratuzilmasini o‘zgartirish.	Kolkhoz-sovхоз tizimini tugatish, dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, davlatning iqtisodiy jarayonlardagi bevosita ishtirokini cheklash hamda xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, narxlarni erkinlashtirish

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

		kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.
III bosqich 2000-2006 yy. Agrosanoatda islohotlar va diversifikatsiya davri	Ma'muriy islohotlar doirasida davlat institutlarini tiklash.	Qishloq xo'jaligining muayyan yo'nalishlarida davlat dasturlarini amalga oshirish (masalan, yer resurslarini muhofaza qilish, ilmiy izlanishlarni moliyalashtirish va boshqalar), bojxona tartibotlarini yo'lga qo'yish, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari importini cheklash kabi tashkiliy-uslubiy yondashuvlar ham qo'llanildi.
IV bosqich 2006-2016 yy. Agrar siyosatni davlatning ustuvorligi davri	Agrar siyosatni davlatning ustuvor loyihasi sifatida shakllantirish.	Agrosanoat majmuasini boshqarishda strategik rejalashtirish usullarini keng tatbiq etish, uning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy parametrlarni aniqlash va ularga erishish choralari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.
V bosqich 2016-yildan hozirgacha. Zamonaviy rivojlanish davri	O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda samarali rivojlanishini ta'minlash	Agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, import hajmini kamaytirish hamda qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rilmogda.

Agrosanoat majmuasidagi tizimli muammolarning asosiy sababi tarmoqlar orasidagi notenglik almashinuv ekani haqidagi ilmiy jamoatchilikning fikrini to'liq qo'llab-quvvatlab, biz bu fikrga qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarining davlatlararo notenglik almashinuvi haqidagi haqiqat bilan to'ldirish mumkin, bu esa iqtisodiy barqarorlikning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uning ustidan agrosanoat hududiy-iqtisodiy tizimlarining barqaror rivojlanishiga asoslangan mamlakatning import o'rnini bosish va oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyalarini amalga oshirish orqali yengib o'tish mumkin.

V. XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrosanoat ishlab chiqarishining samarali rivojlanishi nazariyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan to'rtinchi bosqich bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, O'zbekiston agrosanoat majmuasi va hududiy-iqtisodiy tizimlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi muhim. Bu, o'z navbatida, vaqt o'tishi bilan ushbu konsepsiyalarning hayotga tatbiq etilish jarayonini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, agrosanoat majmuasining rivojlanishiga hamroh bo'ladigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan institutsional muhitning o'zgarishini aks ettirish zarur. Bunda, davlat boshqaruv organlarining ma'lum bir davrdagi yetakchi qarashlari va g'oyalari ushbu evolyutsiyada muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, agrosanoat majmuasi tizimidagi barcha jarayonlarni, ularning tarmoq ichki va tarmoqlararo aloqalarini hisobga olgan holda, dialektik bilim usullari asosida tahlil qilish talab etiladi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy beqarorlik kabi omillar ta'siridagi miqdoriy o'zgarishlar sifatdan yangi darajaga o'tishi mumkin.

To'rtinchidan, institutsional muhit agrosanoat hududiy-iqtisodiy tizimlarini

rivojlantirish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu, ushbu sohada samaradorlikni oshirish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun zarurdir.

"Shuni ta'kidlash joizki, agrosanoat ishlab chiqarishining samarali rivojlanishi nazariyasi to'rtinchi bosqichini ajratish yangi boshqaruv paradigmasiga (yangi davlat boshqaruvi) mos keladi. Bu paradigma XX asrning 80-90-yillarida bozor-tadbirkorlik yo'nalishiga o'tish bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, bunda tizimli kommunikatsiyalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirish va barqaror rivojlanishning ustuvor tamoyillarini jahon biznesi va ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq holda o'z rivojini topdi"^{4,5,6}.

Bizga ma'lumki agrosanoat majmuasi (ASM) tushunchasining keng miqyosda rivojlanishi zamonaviy agrosanoat majmuasi tushunchasining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Jumladan, agrosanoat majmuasi (ASM) va zamonaviy agrosanoat majmuasi (ZASM) tushunchalarining o'rtasida bir qancha asosiy farqlar mavjud:

1. Texnologik taraqqiyot.

An'anaviy qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarini birlashtirgan Agrosanoat majmuasi (ASM), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu sohaning asosiy faoliyat doirasini belgilaydi.

Zamonaviy agrosanoat majmuasi esa yuqori texnik, iqtisodiy va ekologik rivojlanish darajasiga ega. U fermerlik va agrobiznesni raqamlashtirish, innovatsiyalar va samarali menejment asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu jarayonda aqlli fermer xo'jaliklari, dronlar, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari kabi ilg'or yechimlar keng qo'llaniladi. Bu yangiliklar agrosanoat sohasini yanada samarali va barqaror qiladi.

2. Yuqori iqtisodiy samaradorlik.

ASM – odatda yuqori mehnat talab qiladigan va samaradorligi past bo'lgan tizim hisoblanadi.

ZASM – mehnat unumdorligi yuqori, kam xarajat talab qiladi va yuqori daromad keltiradi.

3. Ekologik ta'sir.

ASM – tabiatga ta'siri katta, tuproqning tanazzuli, suv resurslarining ifloslanishi mumkin.

ZASM – ekologik toza texnologiyalardan foydalanadi (organik fermerlik, qayta tiklanadigan energiya manbalari, tuproqni dronlar orqali tahlil qilishni o'z ichiga oladi).

4. Ta'minot zanjiri va bozor munosabatlari.

ASM – odatda mahalliy bozorga yo'naltirilgan va ko'proq an'anaviy savdo yo'llaridan foydalanadi.

ZASM – global bozorlarga moslashgan, elektron tijorat, elektron birjalar,

⁴ Ansoff, I. Strategicheskoye upravleniye / I. Ansoff. – Moskva : Ekonomika, 1989. – 519 s.

⁵ Mallinz, L. Menedjment i organizatsionnoye povedeniye / L. Mallinz ; per. s angl. : T. Sexanovich [i dr.]. – Minsk : Novoye znaniye, 2003. – 1039 s.

⁶ Medouz, D. Za predelami rosta / D. Medouz. – Moskva : Progress, 1994. – 303 s.

eksport yo'nalishlarini keng qo'llaydi.

Zamonaviy agrosanoat majmuasi an'anaviy ASMdand texnik, iqtisodiy va ekologik jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u fermerlik va agrobiznesni raqamlashtirish, innovatsiyalar va samarali menejment asosida tashkil etilishini anglatadi.

Keyingi o'rinda agrosanoat majmuasi tizimlarini rivojlantirishda boshqaruv qarorlarining turli darajalari va tegishli biznes-jarayonlarni tadqiq qilishga e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A. A. – qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti - (darslik) - T.: TDIU, 2006 – 302 bet;
2. Bekchanov X.T. Agrosanoat mintaqaviy-iqtisodiy tizimlarining tashkiliy muhitini transformatsiya qilish yo'nalishlari international scientific and practical conference "integration of innovation and investment processes in science and education, production and economy: problems and solutions", APRIL 24, 2025.; 277 bet
3. Maxmudov N. (2020). Perspektivi razvitiya eksporta pishevoy promishlennosti v Uzbekistane. Ekonomika I Obrazovanie, 1(6), 19-23.;
4. Abdug'aniev O.A. Mintaxaning oziq-ovqat bilan taminlanganligini baholash usullari va mezonlari //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3. May iyun' 2018 yil. [//www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz);
5. Abulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'kuv qo'llanma. - T.: Akademiya, 2012.;
6. Abulkosimov X.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashning nazariy jihatlar va yo'nalishlari. Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya", 2017. - 152 b.
7. Ibragimov, Gayrat. (2023). Agroxizmat korxonalari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari. 1. 74-86. The article investigated the theoretical foundations of economic relations between agro-service enterprises and farms, and draws conclusions based on the relevant scientific results.
8. Mamaraximov B.E. O'zbekistonda ozix- ovxat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr' 2016 yil.
9. Kalmuratov B. Babanazarova S. Effective management of the agro-industrial complex of the Republic of Uzbekistan and its development pathways Science and Education in Karakalpakstan. 2025 №2/1(48) Page 328-332
10. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. - T.: UzFA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi nashriyoti, 2016. - 258 b.
11. Sandova D.N., Rasulova D.T. Problemi obespecheniya prodovol'stvennoy bezopasnosti v Respublike Uzbekistan // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. - T., ToshDAU, 2015. 2-son. 91- 94-b.
12. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. - T.: 261 b

13. Muxtorov A.X. va boshk. Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida agrar sohani rivojlantirishning nazariy asoslari. T.: "Fan va texnologiya", 2016, - 280 bet.; Saidaxmedova N.I. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari // Iqtisod va moliya, 2018, 4. 13-b.
14. Umarov I.Yu. Puti povisheniya effektivnosti predprinimatel'skoy deyatel'nosti v povishenii konkurentosposobnosti predpriyatiy pishovoy promishlennosti // Regional'nie problemi preobrazovaniya ekonomiki, №1, 2019. S.30.
15. Usmonov M.D., Azgaraliyeva Aziza, Boboqulov Javohir Agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish // JMBM. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agrosanoat-majmuasi-tushunchasi-tarkibi-va-uni-boshqarish>
16. Tolipova B.F. Oziq-ovqat sanoatining investitsiyaviy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil
17. Sh.Ziyovuddinov Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (O'quv qo'llanma), -T.: TDIU, 2003 – 125 bet
18. Xamraev N.R. "Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda investitsiya salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish (Qashqadaryo viloyati misolida)" mavzusidagi 08.00.03 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. 2025yil.
19. Можаяев, Е. Е. Методология формирования модели стратегического управления бизнес-организациями / Е. Е. Можаяев, А. Е. Можаяев // Вестник Екатеринбургского института. – 2014. – № 4 (28). – С. 60–66.
20. Шумпетер, Й. А. Теория экономического развития / Й. А. Шумпетер. – Москва : Прогресс, 1982. – 401 с.
21. Комышев, А. Л. Управление молочно-продуктовым под комплексом АПК / А. Л. Комышев. – Ижевск : Изд-во ИЖГСХА, 2003. – 248 с
22. https://uz.wikipedia.org/wiki/Agrosanoat_majmui